

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI

HAZRATQULOVA OZODA ABDUG'ANIYEVNA

**O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI PAREMIYALARDA
“AFV ETISH” KONSEPTI**

10.00.06-Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz-2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiya avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctoral of philosophy (PhD) on philological
sciences**

Hazratqulova Ozoda Abdug‘anievna

O‘zbek va ingliz tillaridagi paremiyalarda “Afv etish” konsepti.....3

Хазраткулова Озода Абдуганиевна

Концепт “Прощения” в паремиях узбекского и английского языка.....27

Khazratkulova Ozoda Abduganiyevna

The concept of “Forgiveness” in Uzbek and English paremias.....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yhati

List of published works

Список опубликованных работ.....57

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI

HAZRATQULOVA OZODA ABDUG‘ANIYEVNA

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI PAREMIYALARDA
“AFV ETISH” KONSEPTI

10.00.06-Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Termiz-2023

Filologiya fanlari bo'yicha Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2632 -raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya Termiz iqtisodiyot va servis universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Termiz davlat universiteti veb-sahifasining www.tersu.uz hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalining www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raupova Laylo Rahimovna,
Filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mamatov Abdi Eshonqulovich,
filologiya fanlari doktori, professor

Xoshimova Dildora Madaminovna,
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi 03/31.03.2021.Fil.78.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "29" "08" soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43. Tel.: (376) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz.)

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (182 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43. Tel.: (376) 221-74-55

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "23" "08" da tarqatildi.
(2023 yil "23" "08" dagi 34 - raqamli reestr bayonnomasi)




B. Umurqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor


A. Eshmuminov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent


P. U. Bakirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida paremiyalarni o'rganish nafaqat tilning genezisini ko'rish, ma'lum bir xalqning milliy-mentalital stereotiplarini tushunishga imkon bermoqda. Paremiyalar millatning hayoti, odob-axloqi va urf-odatlarini to'g'risidagi ma'lumotlarni konsentratsiyasi va olam modelini birlashtirib, tilning eng qadimiy g'oyalari hamda qoidalarini aks ettiradi.

Dunyo tilshunosligida har qanday paremiya—bu avlodlar tajribasini umumlashtiradigan va xalqning urf-odatlarini hamda an'analarga oydinlik kiritadigan fikrning mantiqiy shakli sifatida baholanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab paremiyalar turli xil tillarda o'xshash yoki bir-biriga yaqin ma'nolarni ifodalaydi. Xususan, turli xil til guruhlarining maqol fondida u yoki bu shaklda do'stlarga yordam berish, qariyalarni hurmat qilish, qarindoshlarini qo'llab-quvvatlash va oila yaxlitligini saqlash zarurligi to'g'risida, shuningdek, mehnatning afzalliklari, yolg'onning zarari, murakkab muammolarni birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan hal qilish zarurligi va boshqalar haqida so'z yuritiladi.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishni rivojlantirish davlat siyosatining bir qismiga aylangan. Ayniqsa, "...davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish uslubiyotlarini yaratish..."¹ jarayonida paremiyalarni qiyosiy tadqiq qilish borasida chuqur izlanishlar olib borish kun tartibiga qo'yilmoqda. Shu jihatdan paremiyalarning kelib chiqishi, o'ziga xos xususiyatlari, ularning milliy va madaniy jihatlarini aks ettirishning o'zbek va ingliz tilidagi xususiy diskurslarda qiyosiy aspektida tekshirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019 yil 21 oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari; 2012 yil 10 dekabrda PQ-1875-sonli "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi 124-son "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida", 2017 yil 11 avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur soha bo'yicha qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari

¹"Ўзбекистон Республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида" // Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги ПҚ-5117-сон қарори/ <https://lex.uz/docs/542673>

rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish”ning ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida paremiyalarning ilmiy tadqiqi bilan bog‘liq tadqiqotlar ko‘p. Sohada maqollarni tadqiq etish, xususan, ularni paremiologik birlik sifatida monografik tahlil etishda ingliz tilshunoslari A.Taylor, A.Dantes, V.Mayder, J.Reylarning ishlarini sanash mumkin². Bu masalada o‘zbek tilshunoslari G‘.Salomov, M.Fozilov, M.To‘ychiev, A.Mamatov, M.Umarxodjayev, A.Mamatov, M.Hakimov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, M.Sodiqova, M.M.Karomatova, H.S.Karomatov, Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, B.M.Jo‘raeva, A.Musoqulov, B. Sarimsoqov, P.U.Bakirov, L.Raupova, G.I.Ergasheva, Z.Abduaxadova, B.P.Nazarov, D.A.Tosheva, D.S.Turdaliev, Sh.Tojiboev, M.A.Temirova, O.P.Uralova, Z.R.Narmuratovlar³ alohida izlanishlar olib borishgan va ularning tadqiqotlarida paremiyalarning semantik va lingvistik tavsifi, stilistik tamoyillari hamda muammoni qardosh tillardagi mavjud bo‘lgan paremiyalar bilan qiyosiy-chog‘ishtirma aspektda tahlil

²Taylor A. Selected Writings on proverbs. Helsinki: Suomalainen Tiedeakatemia, 1975. – 203 p.; Dundes A. On the structure of the Proverb, Mieder, W. & Dundes A. The Wisdom of many: Essays of the Proverb. Madison, Wisconsin: University of Wisconsin Press. 1994. – 352 p.; Proverbs: A Handbook. Meider W. London: Greenwood Press, 2004. – 321 p.; A complete collection of English proverbs by John Ray published by Forgotten books. London, Dalton house, 60 Windsor Avenue, 2013. – 319 p.

³Саломов Г. Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. – Тошкент: /Фанлар академияси/ 1961. – 159 б.; Фозилов М. Ҳикматли сўзлар, афоризмлар ва мақоллар. – Тошкент: «Ўзбекистон» нашриёти, 1967. – 191 б.; Тўйчиев М. «Шинелли йиллар» романида халқ мақоллари ва ибораларининг ишлатилиши. Ўзбек фразеологиясидан тадқиқотлар. СамДПИ асарлари. Самарқанд. 1971. – 87 б.; Mamatov A. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari: Filol. fan. dokt. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2000. Умарходжаев М.И. Основы фразеологии. – Москва, 1981. – 56 с. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари: филол. фан. докт. ... дис. – Т., 1999. – 316 б. Маматов А.Э. Семантико-стилистические особенности эмоционально-оценочных фразеологических единиц узбекского языка: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1988. – 20 с. Ҳақимов М. Ёзувчи ва халқ тили. – Тошкент: «Фан», 1971. – 176 б.; Ўзбек халқ мақоллари: [2 томлик]. Масъул муҳаррирлар: Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Том 1. – Тошкент, «Фан», 1987. – 368 б.; Ўзбек халқ мақоллари: [2 томлик]. Масъул муҳаррирлар: Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Том 2. – Тошкент: «Фан», 1988. – 372б. Қисқача ўзбекча-русча мақол-маталлар лугати / Тузувчи: Содиқова М. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 76б.; Proverbs-мақоллар-пословицы /Тузувчилар: Кароматова М.М., Кароматов Ҳ.С. – Тошкент: Меҳнат, 2000. – 400 б.; Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. – 448 б.; Жўраева Б.М. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланиши: Филол. фанлари номзоди дисс. – Бухоро, 2002. – 136 б.; Ўзбек халқ мақоллари/ Тузувчилар: Мирзаев Т., Мусоқулов А., Саримсоқов Б. – Тошкент.: «Шарқ», 2005. – 253 б.; Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Доктор филологических наук дисс. – Ташкент, 2007.–334с.; Raupova L. Dialogik diskursdagi polipredikativ birliklarning sotsiopragmatik tadqiqi: filol. fan. d-ri...diss. avtoref. – Т.: 2012. – 48б.; Эргашева Г.И. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг киёсий-типологик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди дисс.– Тошкент, 2011. –164б.; Абдуахадова З.Ж. Инглиз ва ўзбек тилларидаги соматик фразеологизмларнинг лингвостилистик, хусусиятлари ва уларнинг ўзбек тилида берилиши (лексикографик манбалар асосида). – Самарқанд, 2015. – Б.25.; Назаров Б.П. Бакалавр тайёрлашнинг қуйи босқичида немис тилини коммуникатив методика асосида ўқитишда мақоллардан фойдаланиш. Педагогика фанлари номзоди дисс. – Самарқанд, 2012.–186 б.; Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. – Тошкент, 2017.–151б.; Турдалиева Д.С. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. – Фарғона, 2018. – 144 б.; Илм ҳикмати (Илм ҳақидаги ҳадис, мақол ва ҳикматли сўзлар тўплами) Тузувчилар: Тожибоев Ш., Эгамбердиев Р. – Тошкент: Наврўз, 2018. – 76 б.; Темирова М.А. Ўзбек ва қирғиз халқ мақоллари типологияси. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. – Тошкент, 2018. – 166 б.; Уралова О.П. Инглиз ва ўзбек тилларида “оила” бош лексемали мақоллар семантикаси ва структураси. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс.– Самарқанд, 2021.–144 б. Нармуратов З.Р. Инглиз ва ўзбек тилларида “таълим”, “илм” концептларига оид паремаларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол. Фанлари фалсафа д-ри... дисс.-Термиз, 2022. – 129 б.

etilgan.

Dunyo tilshunosligida konsept bilan bog‘liq tadqiqotlar turli aspektlarda tahlil etilgan. Jumladan, V.V.Maslova, S.Y.Nikitina, A.F.Vejbiskaya, V.N.Teliya, Y.V.Babaeva, L.Y.Vilms, V.V.Vorobev, N.F.Alefirenko, V.M.Shaklein, Z.K.Sabitova, I.A.Murzinova, O.Bicher⁴ kabi tilshunoslarning tadqiqotlari shular jumlasidandir. Aynan avf etish konsepti bilan bog‘liq tadqiqotlar ingliz tilshunosligida L.Everet, S.Freedman, Kari A. Terzino, B. Reid, L.J.Kijo, K. J. Gentile⁵ tadqiqotlarida maqola, ilmiy tadqiqot, monografiya ko‘lamida tadqiq etilgan. Rus tilshunosligida esa S.G.Vorkachev, Z.D.Popova, N.M.Kravsovalar⁶ tomonidan turli tillardagi konseptlar ilmiy asosda o‘rganilgan. Shuningdek, o‘zbek tilshunosligida A.A.Abduazizov, D.U.Ashurova, M.D.Yusupov, A.E.Mamatov, SH.Safarov, O‘.Q.Yusupov, G‘.Hoshimov, J.Yakubov, G.Ergasheva, Z.Akasimova kabi olimlar tomonidan konseptga bag‘ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Shu vaqtgacha yaratilgan tadqiqotlarda aynan avf konseptining leksik-semantik, lingvomadaniy xususiyatlariga ko‘ra tahlil etilmagan. Ushbu tadqiqot ishida Avf konseptining leksik semantik xususiyatlari tahlil etilgan. Tadqiqot davomida olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarga atroflicha munosabat bildirildi, zarur o‘rinlarda foydalanildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Termiz iqtisodiyot va servis universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek tili sistemaviy tadqiqi” hamda “O‘zbek tili imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi va uni tahlil qilish hamda baholashning ilmiy asoslari” yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

⁴Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М.: Академия, 1987. – 284 с.; Никитина С.Е. Устная народная культура и языковое сознание. – М.: Наука, 1993. – 189 с.; Вежбицкая А.Ф. Язык. Культура. Познание / Пер. с англ., отв. ред. М.А. Кронгауз, вступ. ст. Е.В. Падучевой. – М.: Русские словари, 1996. – 416 с.; Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.; Бабаева Е.В. Культурно-языковые характеристики отношения к собственности (на материале немецкого и русского языков): Дисс. канд. филол. наук. – Волгоград, 1997. – 207 с.; Вильмс Л.Е. Лингвокультурологическая специфика понятия “любовь” (на материале немецкого и русского языков): Дисс. канд. филол. наук. – Волгоград, 1997. – 212 с.; Воробьев В.В. Лингвокультурология. М.: Издательство Российского университета дружбы народов, 2006. – 112 с.; Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка: «учебное пособие» М.: Флинта, Наука; 2010–240 б.; Шаклеин В.М. Лингвокультурология: Традиции и инновации [Электронный ресурс]: Монография/М.: Флинта, 2012. – 301 с.; Сабитова З.К. Лингвокультурология: Учебник. – М.: Флинта, 2013. – 524 с.; Мурзинова И.А. Эмблематичность образных характеристик лингвокультурного типажа «британская королева» в языковом сознании носителей британской лингвокультуры // Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin). 2013. – С.138.; Бичер О. Русские пословицы и поговорки с компонентом-зоонимом (на фоне турецкого языка): Дисс. канд. филол. наук. – Смоленск, 2015. – 145 с.

⁵Everet L. Handbook of forgiveness. – New York. 2005. – 622 p.; Freedman, S. Forgiveness and reconciliation: The importance of understanding how they differ. Counseling and Values, 42, 1998 – 216 p.; Kari. A.Tarzino. Culture and forgiveness: A prototype perspective. Dissertation Iowa State University Ames, Iowa 2007 – 80 p.; Reid B. Locklin Short Reflection Paper: Becoming Human March 8, 2017.; Lijo KJ. Forgiveness: Definitions, Perspectives, Contexts and Correlates // Psychol Psychother 2018, 8:3 DOI: 10.4172/2161-0487.1000342.; Kathy Justice Gentile. To Know All Is To Forgive All: I. Compton-Burnett's Ethic of Tolerance . – NY. 1991.

⁶Воркачев С.Г. Концепт “счастья” в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа: Монография. Краснодар: изд-во Кубан. гос. гос. техн. ун-та, 2002. – 142 с.; Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. Воронеж: Изд-во Воронеж. ун-та, 2000. – 30 с.; Кравцова Н.М. Концепт «человек телесный»: когнитивное моделирование и переносы (на материале сопоставительного анализа древнерусского и древнеанглийского языков); Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тюмень: 2008. – 30 с.;

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va ingliz tillardagi "afv etish" konseptli paremiyalarni chogishtirish orqali ularning umumiy hamda farqli jihatlarini aniqlash, lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon tilshunosligida lingvomadaniy birliklar tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqotlarni qiyosiy o'rganish;

paremiyalarning o'zbek va ingliz tillaridagi voqelanishini, shakllanishi va tasniflarini belgilash;

afv etish konseptosferasiga kiruvchi leksik birliklarni tahlil qilish;

o'zbek va ingliz tillarida "afv etish" konseptining lingvomadaniy mohiyatini ochib berishdan iborat;

o'zbek va ingliz tillarida "afv etish" konseptining leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish;

o'zbek va ingliz tillarida "afv etish" konseptual maydonining paremiyalarda ifodalanishini qiyosiy tahlil qilish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida lug'atlaridagi va badiiy adabiyotlardagi faol qo'llaniluvchi milliy-madaniy o'ziga xos o'zbek va ingliz tillaridagi paremiyalar tanlangan.

Tadqiqot predmeti o'zbek va ingliz tillaridagi "afv etish" konseptli paremiyalarning lingvokulturologik xususiyatlari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy tahlil, zidlash, tasniflash, kontekstual, distributiv, struktural va lingvokulturologik, diskursiv tahlil kabi metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paremiyaning o'zbek va ingliz tillarida maqol, matal, aforizm, frazema, sarlavha, chaqiriqlar kabi turlarining, olamning lisoniy manzarasini rivojlantirish va bayon qilishdagi steriotiplarni, metaforik so'zlarni tahlil qilish jarayonida o'zbek va ingliz tillarida lingvokulturologik birliklarning ifodalanish shakllarin aniqlangan;

o'zbek va ingliz tillari tashuvchilarining paremiologik olam manzarasida "afv etish" konseptining kognitiv strukturalari, insonning uzr, kechirim xususiyatlarini namoyon etilishi, "Afv etish" konsepti tarkibiga kiruvchi har bir mikrokonsept o'zbek tilida o'zining keng qamrovligi bilan farq qilinishi (leksik, frazeologik birliklar, maqol va matallar, aforizmlar va so'z birikmalar) orqali yoritilgan;

paremiyalar o'zbek va inglizlarning lisoniy dunyoqarashlarida folklor g'oyalarini, jamiyatning rivojlanishi, tartibi va yashashiga doir qoidalar bo'lgan madaniyat me'yorlarini lisoniy konseptlar orqali aks ettirishi, lingvomadaniy kompetensiyaga ega bo'lishi, o'zbek tilida afv etish konseptosferasining uch yirik semantik maydoni: afv etish, afv etilish, afv so'rashni qiyoslashlar va tahlillar orqali to'g'ri interpretatsiya qilish imkonini berishi dalillangan;

chog'ishtirilayotgan tillarda "afv etish" konseptini hosil qiluvchi lisoniy birliklarning turlari, statistik tahlillari amalga oshirilgan hamda konsept tushunchasini o'rganish va tahlil qilish asosida "afv etish" konseptining umumiy konseptosferasi shakllantirilgan, tahlil olib borilgan tillarda "afv etish" konseptining semantik maydonining yadro va periferiyalari ochib berilgan;

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati lingvomadaniy, emotsional va kognitiv munosabatlar, inson tafakkurining atrof-olam bilan munosabati manzarasining lisonda ifodalanishi, konsept va uning turlari kabi masalalar tadqiqida, turli izohli lug‘atlarni yaratishda vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, olingan xulosalardan “Kognitiv tilshunoslik”, “Lingvokulturologiya”, “Umumiy tilshunoslik”, “Uslubiyat”, “Matn lingvistikasi”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” fanlari bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek va ingliz va tillaridagi paremiyalarda “afv etish” konseptining qiyosiy-chog‘ishtirma tahlilini amalga oshirish va lingvomadaniy birliklarni tadbqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

chog‘ishtirilayotgan tillarda afv etish konseptining lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish, jahon tilshunosligida lingvomadaniy birliklar tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqotlarni qiyoslash, “afv etish” konsepti mohiyatini ochib beruvchi leksemalarning sinonimlar tarkibini tasniflashga doir natija va xulosalardan O‘zbekiston Respublika Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining FA-F1-G003 raqamli “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so‘z yasalishi” fundamental loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2022 yil 14 dekabrda 527/1-son ma‘lumotnomasi). Natijada turli tizimli tillarda lingvomadaniy birliklarning hosil bo‘lish usullaridagi farq hosila nominatsiyasining sodir bo‘lish yo‘llari evaziga qaror topishiga doir ma‘lumotlar loyiha mazmunining lingvomadaniy jihatdan to‘ldirilishiga xizmat qilgan;

o‘zbek va ingliz tillaridagi paremiologik sathining tasnifida “afv etish” konsepti negizidagi o‘xshash lingvomadaniy birliklardan, badiiy va ilmiy asarlar tarjimasini bilan bog‘liq muammolar echimi doirasida ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy tavsiyalardan O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida bajarilgan “O‘zbek raqs san’ati terminologiyasi” mavzusidagi PZ-20170930188-raqamli tadqiqot loyiha mazmunini lingvomadaniy jihatdan to‘ldirishga xizmat qilgan. (O‘zbekiston Davlat Xoreografiya akademiyasi 24.11.2022 yildagi №01-04-08/492-sonli ma‘lumotnomasi)

jahon tilshunosligida lingvomadaniy birliklarni qiyosiy o‘rganish, hamda tilshunoslikda paremiyalarning o‘rni, paremiyalarda konseptning ishlatilishi, “afv etish” konseptining o‘zbek va ingliz paremiyalarida ishlatilishi bo‘yicha olingan ilmiy-nazariy xulosalardan Surxondaryo viloyati teleradiokompaniyasining “Ma‘naviyat qalb ko‘zgusi”, “Til millat ko‘zgusi”, “Ta‘lim va taraqqiyot” ko‘rsatuvlarida, “Yangi asr” radio kanali dasturlarida ilmiy mavzuga bag‘ishlangan radio eshittirishlarini tayyorlashda foydalanilgan. (“Surxondaryo viloyat teleradiokompaniyasi”ning 2022 yil 9 noyabrda 01-01-122-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuv uchun tayyorlangan materiallarning ommabopligi ta‘minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shulardan 3 tasi xorijiy xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola nashr etilgan.

Ishning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy xajmi 142 sahifani tashkil etadi.

TADQIQOTNING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning **“Lingvomadaniy birliklarning tilshunoslikdagi roli va ahamiyati”** deb nomlangan birinchi bobida xalqlar o'rtasidagi madaniy hodisalar, urf-odatlar, paremiyalarning umumiy tasnifi, paremiyalarni o'zaro va tillararo qiyosiy o'rganish orqali ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash, olamning lisoniy manzarasining turli millatlar tafakkuridagi in'ikosini bilib olish, olamning lisoniy manzarasida lingvomadaniy birliklar va ularning ifodalanishi, ingliz va o'zbek tillarida avf etish konsepti bilan bog'liq paremiyalarning qiyosiy-assotsiativ tahlili masalalari yoritilgan.

“Jahon tilshunosligida lingvomadaniy birliklarning o'rganilishi” qismida jahonda lingvomadaniy birliklarning tadqiq etilish masalasi yoritiladi.

Dunyoning madaniy qiyofasini o'rganishda lingvomadaniyatshunoslar (N.M.Terebixin, V.N.Toporov, G.D.Gachev, Karasik V.I.) bir qancha holatlarni keltirib o'tadilar:

1)til umuminsoniy va ularning o'ziga xos xususiyatlarini, shu jumladan, dunyoning madaniy qiyofasini o'z ichiga oladi;


2)dunyoning madaniy qiyofasida madaniyatga xos ma'nolar, madaniy qimmatli dominantlar, madaniyatning ma'lum turlarini tashkil etuvchi, tilda saqlanib qolgan va qo'llaniladigan tushunchalar bo'ladi;

3)dunyoning madaniy qiyofasi yagona til madaniyati qolipidagi yagona obrazni ifodalamaydi, chunki turli millat vakillari turli qadriyatlarga ega bo'lishi mumkin;

4)dunyoning madaniy qiyofasi nafaqat individual, balki jamoaviy ongda ham mavjuddir⁷.

⁷Теребихин Н.М.Сакральная география Русского Севера: Религиозно-мифологическое пространство севернорусской культуры. – Архангельск, ПГУ, 1993. –220 с. Топоров В.Н. Введение в творческое наследие. Москва: «Языки рус. культуры», 2001–2003. Кн. 1. 912 стр.; Гачев Г. Д . Ускореното развитие на културата (на

Muayyan xalq madaniyatining tilda aks ettiruvchi birliklarning yagona chegarasini belgilab bo'lmaydi. Turli vositalar verbal va nonverbal tarzda madaniy xoslikni ifoda etishga xizmat qiladi. Lingvokulturologiyada asosiy birliklar quyidagicha guruhlariga ajratiladi (1-rasmga qarang):



1-rasm. Lingvokulturologik birliklar

Til va madaniyat deganda, odatda til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui" demakdir⁸. Odatda, madaniyatlararo aloqada tushunmovchilikning asosiy sababi til bilmaslik emas, balki kommunikatorlarning milliy ongidagi farqdir. Jamiyatdagi qotib qolgan qarashlar va mavjud qadriyatlar tizimi xalqlarning dunyoqarashiga bevosita bog'liq bo'ladi, shu sababli odamlar ongi kelib chiqish nuqtai nazardan ma'lum talab va mezonlarga, shartlarga asoslanadi.

Tilda ifodalanish darajasiga ko'ra ma'naviy qadriyatlar umuminsoniy, milliy, mulkiy, guruhli, oilaviy, individial-shaxsiy bo'lishi mumkin. Bizning tushunishimizcha, zamonaviy lingvomadaniyat:

- a) madaniyat ob'ektlarini tilda ifodalash usullari va vositalarini,
- b) muayyan xalqning mentalitetini tilda ifodalashning o'ziga xos xususiyatlarini,
- s) tilda qiymat-semantik toifalarni aks ettirish usullarini o'rganadigan ilmiy fan.

болг. яз.). София: Наука и изкуство, 1979. – 519 с.; Karasik V.I. Language matrix of culture. - Volgograd, 2012. – 319 p.

⁸Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб ... Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – 3-16 б.

Dunyoning lisoniy manzarasi inson tafakkurida shakllanar ekan, bunda lingvistik vositalardan paremiyalar, xususan, xalq maqollarining ahamiyati nihoyatda katta ekanligini alohida e'tirof etish lozim.

“Paremiya (yun. paroimia — hikmatli soʻz, zarbulmasal, hikoya, maqol) — maʼlum bir tildagi avloddan avlodga ogʻzaki shaklda koʻchib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo boʻlgan maqol, matal, aforizm, frazeologizm kabi hikmatli iboralar, kontekst sharoitlardan tashqari hamma soʻzlashuvchilar tomonidan tushuniladigan mazmundagi fikr”⁹. Dunyoning etakchi paremiologi Wolfgang Mieder maqolni “xalqning qisqa, umumiy maʼlum boʻlgan jumlası, unda hikmat, haqiqat, axloq va anʼanaviy qarashlar, avloddan-avlodga esda qoladigan hikmatli soʻz”¹⁰, shuningdek, maqollarning taʼrifiga ishora qilib - “*Maqol-tajriba farzandi*”, “*Maqol – koʻchaning hikmati*”, “*Maqol-toʻgʻri soʻz*”, “*Maqollar – aniq soʻz*”¹¹ deya taʼriflaydi.

Paremiyalarni toʻplash, oʻrganish Mahmud Qoshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” va Gulxaniyning “Zarbulmasal” zamonlaridan to hozirgi kunlargacha davom etib kelmoqda. Bizning fikrimizcha, har bir maqolning vujudga kelishida birorta ibratli voqea roʻy bergan va bu voqea oʻta zukko, sinchkov dono ajdodlarimiz vakili tomonidan kuzatilishiga sabab boʻlgan. “Devonu lugʻotit turk”dan olingan quyidagi misollarga murojaat qilaylik: “*Besh qoʻl barobar emas*”, “*Hoʻkizning oyogʻi boʻlguncha buzoqning boshi boʻlgan yaxshiroq*”, “*Ot kuragidagi yagʻir, bolalariga meros boʻlib qoladi*”, “*Quduqda suv bor, ammo it burni tegmaydi*”¹².

Professor P.U.Bakirovning “Milliy gʻoya targʻibotida oʻzbek xalq maqollaridan foydalanish” nomli risolasida dunyo tarkibida maqollari boʻlmagan birorta ham til yoʻq deb, qayd etadi va muallif maqolga quyidagicha taʼrif beradi: Har qanday tilda maqollar insoniyat jamiyatining barcha sohalarini qamrab oladi. Jamiyatning moddiy va maʼnaviy faoliyatining biron bir sohasida maqollarni aks etmaganini kuzatmaymiz¹³. Turli xalqlar ogʻzaki ijodidagi maqollarni oʻrganish bu janr namunalari mazmunan deyarli hamma xalqlarda bir xil takrorlanishini koʻrsatmoqda. Ammo bunday yaqinlikni bir xalq ikkinchi xalqdan maqolni oʻzlashtirganligi bilan izohlash toʻgʻri boʻlmaydi. Bizningcha, bunday yaqinlikni oddiy turmush tarzining oʻxshashligi, insonlar hayotidagi munosabatlarning yaqinligi va umuman, hayotning koʻp holatlarida bir xil vaziyat hosil qilishi bilan izohlagan maʼqulroq. Masalan: “*To err is human, to forgive is divine*”. (English proverb), “*You forgive everything of someone who doesn't forgive himself*” - (Chinese Proverb), “*Be ayb parvardigor*” kabi oʻzbek maqollari bilan oʻxshash maʼnoni bildiradi.

“Olamning lisoniy tasvirida lingvomadaniy birliklar va ularning ifodalanishi” deb nomlangan qismda frazema, paremiya, mifologema, stereotip, geshtalt singari lingvomadaniy birliklar olamning lisoniy tasvirida voqealanishi chogʻishtirilayotgan tillar asosida tahlil qilinadi. Olamning lisoniy tasvirida

⁹Berdiyev H., Rasulov R., Uzbek tilining paremiologik lugʻati, T., 1984. –288 b.

¹⁰Mieder, W. Proverbs: A Handbook. London: Greenwood Press, 2004. – 119 p.

¹¹Mieder, W. A proverb is worth a thousand words: Folk wisdom in the modern mass media. Proverbium. 2005. – 167p.

¹²Madayev O., Sobitova T. Xalq ogʻzaki poetik ijodi. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – Toshkent. 2010 – 208 b,

¹³Бакиров П.У. Книга в пословицах разных народов мира “Илм сарчашмалари” илмий – методик журнал № 10. Урганч – 2020. – 202 б.

lingvokulturologik birliklar frazema, paremiya, mifologema, steriotip, geshtaltlar ko‘rinishida ifodalanadi va har bir madaniyatga xos bo‘lgan individualliklarni namoyon etadi.

Olamning lisoniy tasvirida insonni olamga (tabiatga, hayvonlarga, o‘z-o‘ziga) bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. Har qanday tabiiy til dunyoni bilish usulining muayyan usulini aks ettiradi. Ya’ni olamning lisoniy tasviri leksika, frazeologiya va grammatikada muxrlangan olam haqidagi bilimlar majmuasidir. Olam manzarasining konseptual va lisoniy turlarini farqlash lozim¹⁴.

Madaniy steriotiplar muayyan millat vakillari xususida umumiy xolda shakllangan qarash, fikrlarni ifodalaydi.

Xususan, o‘zbek xalqi xususida shakllangan steriotiplarni qo‘yidagicha ifodalash mumkin (2-rasmga qarang):



2-rasm. O‘zbek xalqida shakllangan steriotiplar.

Ushbu ko‘rsatilgan streotiplar eng ko‘p qo‘llaniladigan ijobiy ma’no ega. Biroq salbiy ma’noga ega bo‘lgan madaniy streotiplar ham borki, ular to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalanmaydi.

Oxford Royal nashrining amalga oshirilgan so‘rovnomalarga ko‘ra inglizlarga xos bo‘lgan qo‘yidagi steriotiplar eng faol (3-rasmga qarang):

¹⁴Usmonova Sh. Lingvokulturologiya.2014. –79 b.



3-rasm. Inglizlarga xos bo'lgan steriotiplar

Ingliz tilida, xususan, amerikacha so'zlashuv versiyasida *"You dog!"* (*"Sen itsan!"*, *"Ha, sen itsan!"*) ma'lum bir sarguzashtlarni boshidan kechirgan, qandaydir muvaffaqiyatga erishgan odamga qaratilgan. O'zbek tilida esa "Sen itsan" haqorat semasiga ega. Pastkashlik, xudbinlik, razillik singarilarni ifodalashda *"it ekansan"*, *"sen itsan"* so'zlari qo'llaniladi. Demak, it steriotipi o'zbek madaniyatida ikki xil shakllangan birinchisi, uning sodiq va vafodorligi bo'lsa (*It vafo – xotin jafo, itday vafodor*), ikkinchisi, yuqorida ta'kidlanganidek, insonga xos bo'lmagan ishlarni qiluvchi pastkash ma'nosini ifodalaydi.

Aksincha, biror muvaffaqiyatga erishgan, biror ishni maromida etkazgan kishiga nisbatan "Barakalla", "Arslon", "Burgut" so'zlari qo'llanilishi mumkin.


Umuman aytganda, lingvokulturologik birliklardan steriotiplar masalasi, ayniqsa, gender steriotiplar tadqiqotlarda atroflicha o'rganilgan. Biroq turli madaniyatlarda steriotiplarning maishiy turmush bilan bog'liq holatlarini o'rganish, qiyoslash masalasi hali uzoq izlanishlarni talab etadi.

"Afv etish" konsepti etimologiyasi va semantik tabiati, paremiyalarning tasniflanishi va xususiyatlari deb nomlangan faslda chog'ishtirilayotgan tillarda "Afv etish" konseptining etimologiyasi va semantik xossalari yoritiladi. Ingliz tilida "afv etish" ma'nosiga to'g'ri keluvchi "forgiveness" so'zi kelib chiqishiga ko'ra, qo'yidagi manbalardan olingan - sakson-forgivan, gotika-fragiban, nemischa - vergeben, niderland-vergeevan, danish-forgiver va yuqoridagi atamalardagi kechirimning o'ziga xos ma'nosi kechirish yoki jinoyat, yoki qarz sifatida ko'zdan kechirish va jinoyatchini aybsiz deb hisoblashdir¹⁵. Berkitmoq ma'nosini bildiruvchi

¹⁵Ask Gramps, www.askgramps.com/Documents/23

“g‘afara” fe’li shundan kelib chiqadi; kechirmoq, kechirmoq va kechirmoq. Arab tilidagi mag‘firat (g‘ofara) bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan yana bir so‘z “Al-Afv” bo‘lib, so‘zma-so‘z ma‘nosida ozod qilmoq, shifo bermoq yoki tiklamoq ma‘nosini bildiradi¹⁶. Shunday qilib, Allohga nisbatan insonni gunohlari va xatolari tufayli jazo og‘irligidan ozod qilish demakdir. Xolman Injil lug‘ati mag‘firatini abadiy unutish va iymonli odamlarni gunohlari uchun javobgarlikka tortmaslik uchun Xudoning inoyati sifatida tan olmoq ta’riflaydi¹⁷.

Biroq, kechirimlilik qanchalik umumbashariy ko‘rinishga ega bo‘lsa-da, barcha harakatlar bir xil tarzda yaratilgan emas. Bizning madaniyatimiz va shaxsiy psixologiyamiz kechirimlilikni qanday tanlashimizga va u bilan birga keladigan foydalarga ta’sir qiladi (4-rasmga qarang):



4-rasm.

Afv etish bilan bog‘liq konseptosferada ushbu chizmadagi jihatlar asosiy o‘rin tutadi.

II bob Ingliz va o‘zbek tillarida Afv etish konseptining kognitiv xususiyatlari deb nomlanib, chog‘ishtirilayotgan tillarda afv etish konseptining kognitiv, leksik-semantik, sotsiopragmatik xususiyatlarini tahlil qilish masalasiga bag‘ishlanadi.

O‘zbek tilida afv etish mazmunli birliklarning ifodalanish shakliga ko‘ra ikki semantik kategoriyaga bo‘lish mumkin:

1. Afv etish semasiga ega leksik birliklar;
2. Afv etish mazmunini ifoda etuvchi noverbal vositalar.

Afv etish mazmunini ifoda etuvchi leksik birliklar sirasiga eng faol qo‘llanuvchilardan qo‘yidagilarni sanab o‘tish mumkin:

Afv etmoq, afv qilmoq, kechirmoq, uzr, uzr so‘ramoq, gunohidan o‘tmoq, rozi bo‘lmoq, maxfirat qilmoq, rahm qilmoq, baxridan o‘tmoq, ma’zur tutmoq, afv tilamoq, tafviq tilamoq, tavfiq etmoq, afv so‘ramoq, kechirim so‘ramoq, o‘tinmoq.

Bundan tashqari, afv mazmunini ifoda etuvchi noverbal vositalardan, *qo‘lini ko‘ksiga qo‘yish, cho‘k tushish, muk tushish, qo‘lni tepaga ko‘tarish, kaftni*

¹⁶<https://en.wikipedia.org/wiki/Forgiveness>

¹⁷Holman Bible Dictionary, 1996. – P 3.

birlashtirish, elkasiga qo‘lini qo‘yish, bir qo‘lini ko‘tarish kabilarni sanab o‘tish mumkin. Aytish joizki, afv etish keng mohiyatiga ega tushuncha sifatida uning konseptosferasi kechirish va kechirim so‘rash mazmuni ifoda etiladi. Afv etish leksemasining semantik maydonida, uzrxonlik holatida bo‘lish, kimnidir kechirish, gunohidan o‘tish; yoki avf tilash, uzr so‘rash, uzr so‘rash semalari o‘rin oladi.

Afv etish (gunohidan o‘tish, kechirish) kechirim, uzr. *Sizdan bu ulug‘ gunohim uchun afv so‘rab, haydalgan o‘g‘lingiz*¹⁸.

Afv etmoq (qilmoq) Kechirmoq, uzrni qabul qilmoq. Kechirmoq, uzrni qabul qilmoq, gunohidan o‘tmoq. *Biz lapashangligimiz uchun rahnomalarimiz bizni avf etarmikinlar*¹⁹?

Bundan tashqari “Afv etish” yuridik atama sifatida huquqiy mohiyatga ham ega:

1. Afv etish mahkumni jazodan to‘liq yoki qisman ozod etadigan yoki sud tomonidan tayinlangan jazoni boshqa engilroq jazo bilan almashtiradigan yoxud sudlanganlikni olib tashlaydigan insonparvarlik akti hisoblanadi. **Afv etish** muayyan mahkumga nisbatan individual tartibda amalga oshiriladi hamda uni oqlaydigan va u tomonidan jinoyat sodir etganlik faktini bartaraf qiladigan holat hisoblanmaydi.

2. Afv etish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Farmonini qabul qilish orqali amalga oshiriladi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z ixtiyoriga ko‘ra istalgan mahkumni yoki jazoni o‘tab bo‘lgan shaxsni **afv etishi** mumkin.

4. Afv etish O‘zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan hukm qilingan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga, chet el fuqarolariga va fuqarologi bo‘lmagan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi²⁰.

5. Afv etish qo‘yidagi shakllarda amalga oshiriladi:

Asosiy va ijro etilmagan qo‘shimcha jazodan to‘liq yoki qisman ozod qilish;

Jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish;

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini yoki jazoning o‘talmagan qismini engilroq jazo bilan almashtirish;

Sudlanganlikni olib tashlash²¹.

Afv etish konseptosferasida turli mikrokonseptlar ajralib chiqadi. Aytib o‘tish kerakki, afv etish konsepti ikki xil semaga ega tarzda nomoyon bo‘ladi:

1. Kimnidir afv etish, ayblarini xatolarini kechirish;

2. Afv etilganlik holatida bo‘lish.

Qo‘yida ularni tahlil qilamiz:

a) Afv-afv etish, afv qilish, afv aylamoq-**kechirish**

b) Afv so‘ramoq, afv tilamoq, afv eting, afv qiling-**kechirim so‘ramoq**

¹⁸“O‘tkan kunlar”. Abdulla Qodiriy. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. Toshkent, 1994, – 640b.

¹⁹Ўзбек тилининг изоҳли луғати/ З.М. Маъруфов таҳрири остида. I т. А-Р. – Москва: Рус тили нашриёти, 1981. – 631 б.

²⁰O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi.

²¹ <https://lex.uz/docs/-3725214>

Afv qilingan, afv etilgan-**jazodan ozod qilingan, kechirilgan. Gunohi kechirilgan, tavbasi qabul bo'lgan.**

s) UZR-uzrxon, uzromuz, uzr ohangida, uzrli;

d) Kechirmoq-kechirim so'ramoq, kechirilmoq, kechirim

e) Tavfiq-tavfiq aylamoq, tavfiq etmoq;

f) Ma'zur-ma'zur tutmoq, ma'zur etmoq.

1.1-jadval

O'zbek tilida afv etish shakllari		
Fonetik-fonologik	Fonetik jarayon	Afvu etgaysiz
Leksik-semantik	Leksema	Gushtohligim uchun meni kechiring! — Ammo siz haqsiz. Men sizdek sodiq kishilarning taqdirini ham unutmasligim kerak.
	Frazema	Ali Do'stbek afv tilagandek o'zini uning oyog'i tagiga tashlab yukundi. Bobur uni qo'ltig'idan olib turg'izdi:
	Parema	Amirzodam, bir qoshiq qonimdan keching! Yana bir shumxabar!...
Morfem-morfologik	So'z shakl	Amirzodam, Andijonda qilgan gunohlarim uchun aff so'raymen! Tanbal hammamizni aldagan ekan!
	Grammatik shakl	Avf etgaysizlar, —dedi. — Og'amning zaifasi farzand dog'idan telba bo'lib qoldi. Bechoraning o'g'ilchasi ochlikdan kunjara egan ekan, shishib o'ldi.
	Undov	Janob bek, uzr, men harom ishdan qo'rqamen!..
Sintaktik-semantik	So'z birikmasi	Shakkokligim uchun meni kechiring!
	Gap	Meni...mo'g'ul beklari yo'ldan urdilar!...Kechiring, amirzodam, kechiring-deb Muhammad Xusayin xo'ngrab yig'lay boshladi va Boburning oyog'i ostiga o'zini tashladi.
Pragmatik-kulturologik	Milliy	Eshik og'a uzr so'ragandek, ta'zim qilib, orqaga chekindi. Aksi qal'asining qamalda qolishi Mirzoga endi muqarrardek tuyuldi.
	Mentalitet	Salim titroq qo'llarini ko'ksiga qo'yganicha avval onalariga, so'ng otasiga uzrli ko'zlar bilan qaradi:
Noverbal	Mimika	Boya olomonga jahl qilib, qilich yalang'ochlagan qo'rchiboshli qilichini qiniga qaytarib soldi-da, fil ustiga Xumoyunga bosh egib, undan uzr so'ragan kabi qo'lini ko'ksiga qo'ydi. Xumoyun esa qo'rchiboshiga "ma'zursiz" degan kabi jilmayib qo'yganini Hamidabonu aniq ko'rdi..

Ingliz tilida Afv etish konseptini R.T.Lakoff aybdor sub'ekt pozitsiyasida, sub'ekt pozitsiyasidan tashqari, buysunuvchi gapda paydo bo'lishi mumkinligini taklif qiladi.
I want to apologize.

- a) I'd like to apologize.
- b) I guess I owe you an apology.
- c) It's too bad that X happened.
- d) Sorry you got Xed.
- e) I feel I owe you an apology.
- f) It looks to me like an apology might be in order²².

Ko'rinib turibdiki, dastlabki uchta jumla ya'ni (a), (b), (c) uzr so'rovchining sub'ekt pozitsiyasida ekanligini ko'rsatadi, (d) da so'zlovchi (ya'ni uzr so'rovchi) gapda aytilmaydi va (e)da u butunlay tashqarida (f) da uzr so'rash kamaytiriladi.

“Sorry” semantik mohiyatiga ko'ra, o'z aybini tan olish, yoki aybdor ekanligini rad etish mazmunida qo'llaniladi:

Oh, I'm sorry - I didn't see you there.

Tom, I'm so sorry about last night - it was all my fault.

I've said I'm sorry.

I'm sorry that I wasn't able to phone you yesterday.

I'm sorry I'm late. I'm genuinely sorry for what I said, I really am.

I'm sorry, I was only trying to be helpful.

I'm so sorry to keep you waiting.

Sorry yo'q deyish uchun, biror narsani rad qilganda yoki rozi bo'lganda xushmuomalikni ko'rsatish uchun ishlatiladi:

I'm sorry

I'm sorry, but I think you've made a mistake.

I'm sorry, I can't agree. Exclamation

Sorry biror narsa uchun kechirim so'raganda qo'llaniladi: "That's my foot you're stepping on". "Sorry!"

Sorry - I didn't catch what you said.

Xushmuomalada biror narsani rad qilganda yoki rozi bo'lmaganda xushmuomalikni ko'rsatish uchun ishlatiladi: Sorry, you can't go in there. It is also used when politely asking someone to repeat something or when politely interrupting someone:

"He's late." "Sorry?" "I said he's late.

" Sorry, could you just say that last sentence again please?

G'amgin bu qayg'u, hamdardlik yoki umidsizlik hissasini ko'rsatish uchun ishlatiladi, ayniqsa yoqimsiz narsa sodir bo'lganligi yoki sababli: *I'm just sorry about all the trouble I've caused her.*

He'd really upset her and he didn't seem at all sorry. I'm sorry (that) you had such a difficult journey.

Kechirasiz, aytilishi kerak bo'lgan narsa qayg'u yoki umidsizlikni keltirib chiqarishini ko'rsatish uchun ishlatiladi:

I'm sorry to say that the project's funding has been cancelled. Most people who start the exercise class do,

²²Lakoff, Robin Tolmach "Nine Ways of Looking at Apologies: The Necessity for Interdisciplinary Theory and Method in Discourse Analysis " in Sciffin, Deborah, Deborah Tannen and Heidi E. Hamilton. The Handbook of Discourse Analysis. Oxford : Blackwell Publishing Ltd. 2003.P. 206-207.

I'm sorry to say, give up within the first two weeks.

“Sorry” muloqotda qo‘yidagi semantik mazmunni ham ifodalashga xizmat qiladi:

Kechirim so‘rash bu siz boshqa birovga muammo yoki qiyinchilik tug‘dirganingiz uchun o‘zingizni yomon his qilishni anglatadi:

I'm really sorry (that) I forgot about our appointment yesterday.

“Sorry”, Shuningdek, kimdandir sizni bezovta qiladigan biror narsa qilganingiz uchun kechirim so‘rashning xushmuomala usuli sifatida ishlatiladi:

The train will be moving shortly – we are sorry for the inconvenience. Sorry is also used as a polite way to show your sympathy to someone because of a loss, problem, or trouble the person has had: We were sorry to learn about the death of your grandmother.

“Sorry” so‘zining turli grammatik shakllarda qo‘llanilishi tahlilga tortilganida qo‘yidagi xolatlar yuzaga keldi:

1. I am sorry + that clause

<i>“I am sorry you think so;</i>	<i>I am sorry</i>	
----------------------------------	-------------------	--

2. I am sorry to say that

<i>“I am sorry to hear that</i>	<i>I am sorry</i>	<i>but why did not you tell me so before?</i>
---------------------------------	-------------------	---

3. I am sorry + to infinitive

<i>I am sorry to say it of the</i>	<i>I am sorry</i>	<i>but so it is</i>
------------------------------------	-------------------	---------------------

4. I am sorry + for + someone

<i>and Elizabeth, sorry for</i>	<i>I am sorry</i>	<i>her, and sorry for her fat her ' sspeec</i>
---------------------------------	-------------------	--

5. I am sorry + but

<i>I am sorry to say it of the</i>	<i>I am sorry</i>	<i>but so it is</i>
------------------------------------	-------------------	---------------------

6. I am sorry + about

<i>I am sorry</i>	<i>I am sorry</i>	<i>about her disposition ,</i>
-------------------	-------------------	--------------------------------

7. I am sorry + and

<i>I can only say that I am sorry</i>	<i>I am sorry</i>	<i>and I don't know how to say</i>
---------------------------------------	-------------------	------------------------------------

she was at first sorry for the pain he was to receive

Ingliz tilida “Apology” (Buyuk Britaniyada odatda kechirim so‘rayman) qo‘yidagi ma‘nolarda qo‘llaniladi:

Birovga muammo yoki noqo‘lay keltirgan ish qilganingiz uchun afsusda ekanligini aytish mazmunida qo‘llaniladi:

Trains may be subject to delay - we apologize for any inconvenience caused.

She apologized profusely for having to leave at 3.30 p.m.

I tried to apologize, but he just screamed abuse at me.

Trains may be subject to delay on the northern line - we apologize for any inconvenience caused.

Imagine the humiliation of having to apologize.

He knew he had been wrong, and duly apologized:

“Apologize” fe’l shakli qo’yidagi grammatik ko‘rsatkichlarda faol qo‘llaniladi:

1. Apologize

If I offended you, I apologize.

2. Apologize + for + something

She apologized for her husband’s rudeness.

3. Apologize + to someone

I must apologize to Isobel for my lateness.

4. Apologize + if clause

If I offended you, I apologize.

Uzr so‘rash gap qismi fe’l bo‘lib, ikkalasi bilan birga keladi bosh gap va gap. Ushbu tadqiqotda men uzr so‘rayman va uzr so‘rayman qo‘yidagi natijalar bilan mos ravishda turli romanlarda qidirish uchun kalit so‘zlar sifatida ishlatilgan:

1. I apologize + for + something

today. And I said it then, not just now. And I apologize for jumping on you there. I'm sorry. But you're

2. I apologize + to + someone

you know, back in the day. She was. I apologize to all little people. All right. Whatever. There they are.

3. I apologize + if

No, but it was supposed to be a joke, but I apologize if anyone was offended. However, I am very excited that it sparked a

4. I apologize + but

see you all. So it's hard to distinguish your voices occasionally. I apologize. But let's ask ourselves why women do better in a meritocracy. Women

5. I apologize + that clause

No. He's-- he's not okay, hon, and I apologize that it took us so long to get here-- (What do you

6. I apologize + and

you doing here? " he ells. " Delete that photo! "I apologize and offer to leave immediately -- but then I realize that we can't:

7. I apologize + noun clause

last night. Take a look. Some of these people are demanding that I apologize, which I, of course, will not do. Some are saying I

8. I apologize + in advance

sometimes. " Now the nurse picks up the first syringe. " I apologize in advance, " she says. On cue, the man once known

9. I apologize + about

